

Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi, Farg'ona davlat universiteti Lingvistika:
o'zbek tili mutaxassisligi magistranti e-mail: utanovavazira@gmail.com [Orcid: 0000-0002-2505-4019](https://orcid.org/0000-0002-2505-4019)



DIREKTIV NUTQIY AKTLARNING LINGVOKRIMINALISTIK- PRAGMATIK TAHLILI

<https://zenodo.org/records/18729142>

Annotatsiya: Maqolada direktiv nutqiy aktlarning nazariy-metodologik asoslari lingvokriminalistika va pragmalingvistika chorrahasida tahlil qilingan. Nutqiy aktlar orqali jinoiy niyatning ifodalanishi eksplitsit, implitsit va konditsional modellar vositasida tizimlashtirilgan. Amaliy jihatdan direktiv aktlarning illokutiv kuchi va ularni nutqiy huquqbuzarlik sifatida baholash prinsiplari asoslab berilgan.

Kalit so'z va iboralar: direktiv akt, illokutiv, pragmalingvistika, lingvokriminalistika, tahdid, majburlash, shantaj, eksplitsit, implitsit, konditsional.

FORENSIC LINGUISTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF DIRECTIVE SPEECH ACTS

Annotation: The article analyzes the theoretical and methodological foundations of directive speech acts at the intersection of forensic linguistics and pragmalinguistics. The expression of criminal intent through speech acts is systematized using explicit, implicit, and conditional models. From a practical perspective, the illocutionary force of directive acts and the principles of evaluating them as verbal offenses are substantiated.

Key words and phrases: directive act, illocutionary force, pragmalinguistics, forensic linguistics, threat, coercion, blackmail, explicit, implicit, conditional model.

ЛИНГВОКРИМИНАЛИСТИЧЕСКИЙ И ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИРЕКТИВНЫХ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические основы директивных речевых актов на стыке лингвокриминалистики и прагмалингвистики. Выражение преступного умысла через речевые акты систематизировано с помощью эксплицитных, имплицитных и кондициональных моделей. С практической стороны обоснована иллокутивная сила директивных актов и принципы их оценки как речевых правонарушений.

Ключевые слова и выражения: директивный акт, иллокутивная сила, прагмалингvistika, лингвокриминалистика, угроза, принуждение, шантаж, эксплицитный, имплицитный, кондициональная модель.

Kirish.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri – bu nutqiy faoliyatning huquqiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan lingvokriminalistika fanidir.

Ushbu fan doirasida turli nutqiy aktlarning, xususan, direktiv nutqiy aktlarning (tinglovchini ma'lum harakatga undovchi nutqiy harakatlarning) tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inson kommunikatsiyasida aynan shu turdagi nutqiy harakatlar ko'pincha huquqbuzar harakatlarning dastlabki bosqichini tashkil etadi, ular orqali jinoyatchining niyatlari ifodalanadi, psixologik bosim amalga oshiriladi, qurbonning irodasi zaiflashtiriladi.

Pragmatika tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalaridan biri sifatida shaxsning ijtimoiy faolligini o'zida mujassam etgan nutq jarayonini, nutqiy vaziyat ta'sirida namoyon bo'ladigan kommunikativ niyat bilan bog'liq tushunchalarni o'rganadi. Pragmatika nutq aktining bevosita matn bilan aloqasini o'rganadi [1:55]. Detektiv matnlar esa jinoyat ortidagi ruhiy holatlar, yashirin niyatlar hamda huquqbuzarlikning til orqali namoyon bo'lish shakllarini ochib beradi. Aynan shu nutqiy muhitda buyruq, talab, ogohlantirish va majbur etish kabi direktiv nutqiy aktlar kommunikativ ta'sirning muhim vositasi sifatida yuzaga chiqadi. Ularni lingvokriminalistik va pragmatik jihatdan tahlil qilish jinoyatchilik muloqotining mexanizmlarini anglash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Direktiv nutqiy akt nazariyasi asosan J. L. Osten va J. R. Serlning asarlarida ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, bu turdagi aktning asosiy illokutiv maqsadi tinglovchining kelajakdagi harakatiga ta'sir o'tkazishdan iborat. Lingvokriminalistikada esa aynan shu ta'sir mexanizmi, uning huquqiy oqibatlari va jinoiy niyatni ifodalashdagi roli o'rganiladi. Direktiv nutqiy aktlarning asosiy funksiyasi tinglovchidan kelajakda biror amaliy harakatni bajarishni so'rash yoki undashdan iborat ekanligi Searle tomonidan ta'kidlangan. Searle nutq aktlarini beshta asosiy toifaga ajratadi [4:64], ulardan biri – direktiv aktlar bo'lib, ularga buyruq, talab (so'rov), iltimos, maslahat va taklif kabi nutqiy aktlar kiradi, bularning barchasi tinglovchidan ixtiyoriy yoki shartli harakatni so'rash yoki undashga yo'naltirilgan ifodalardir.

O'zbek tilshunosligida M. Hakimov "Pragmalingvistika asoslari" (2020) asari orqali direktiv nutqiy aktlarning lingvistik strukturasi, illokutiv kuchi va grammatik-pragmatik ifodalanish usullarini chuqur o'rganishga qaratgan [2:122]. Sh.Safarov "Pragmalingvistika" asarida nutqiy aktlarning lingvistik mexanizmlari va kommunikativ funksiyalari tahlil qilib, ularning kontekstda qanday lingvistik belgilar orqali namoyon bo'lishi ko'rsatib bergan [3:93]. Bu esa o'zbek tilidagi tahdid, buyruq va majburlash kabi direktiv aktlarni lingvokriminalistik tahlil qilishning nazariy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Shu jumladan, nutqiy aktlarning buyruq, talab va taklif turlari lingvokriminalistik tahlil uchun alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular til orqali ta'sir mexanizmini va kelajakdagi harakatni shakllantirib, huquqbuzarlik niyatlarini aniqlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Masalan, tahdid akti ko'pincha shartli qo'shma gaplar va kelasi zamon fe'llari yordamida ifodalanadi: "... Bir qadam bossalaring otaman!" (Tohir Malik. Shaytanat, 4-kitob, 16-b.). Bu yerda "bossalaring" shart mayli, "otaman" esa kelasi zamon shakli bo'lib, tahdidning shartli va reallashtirilishi mumkin bo'lgan tabiatini aniq namoyon etadi.

Natija va muhokama.

Lingvokriminalistik tahlilning muhim jihati – bu nutqiy aktning faqatgina semantik tarkibini emas, balki uning kommunikativ kontekstini, ya'ni kim tomonidan, kimga nisbatan, qanday sharoitda aytilganligini ham hisobga olishdir. Bir xil grammatik konstruktsiya turli kontekstlarda turli illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin. Masalan,

“Hozir jo‘nab ket!” degan gap odatda oddiy buyruq bo‘lsa-da, agar u qurolli shaxs tomonidan qo‘rqitilgan odamga aytilgan bo‘lsa, u holda bu jiddiy tahdid va majburlash aktiga aylanadi. Detektiv asarlarda bu jihatlar juda aniq beriladi. “...siz uchun yuqori biz bo‘lamiz. Biz aytdikmi, tamom! Bajarishga majbursiz.” – degan ibora (Tohir Malik. Shaytanat, 1-kitob, 199-b.) grammatik jihatdan oddiy talab ko‘rinishida bo‘lsa-da, “majbursiz” degan ogohlantirish va “tamom” degan keskin munosabatli murojaat shakli orqali u kuchli psixologik bosim va tahdid aktini ifodalaydi. Ana shu og‘zaki tahdidning yozma matnda qanday aks etishi, uning lingvistik markerlari (masalan, ogohlantiruvchi gap, shart shakllar, qo‘rqitish mazmunidagi leksika) – bularning barchasi lingvokriminalistik ekspertiza uchun asosiy tahlil obyekti sanaladi.

Nutqiy aktlar nazariyasida tahdid direktiv illokutiv kuchga ega bo‘lgan, tinglovchining kelgusidagi xulq-atvorini so‘zlovchining manfaatlari yo‘lida nazorat qilishga qaratilgan salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi nutqiy harakat hisoblanadi [5:72]. Lingvokriminalistik tahlil jarayonida tahdidlar ifodalanish usuli va pragmatik xususiyatlariga ko‘ra uchta asosiy lingvistik modelga tasniflanadi [6:37].

1. **Eksplitsit** (ochiq) shaklda tajovuz niyati maxsus leksik birliklar va grammatik vositalar orqali bevosita ifodalanadi, bunda subyekt va predikat o‘rtasidagi bog‘lanish tushunmovchiliklarga o‘rin qoldirmaydi, ya‘ni so‘zlovchining destruktiv maqsadlari aniq strukturalarda namoyon bo‘ladi.

2. **Implitsit** (yashirin) modelda esa tahdid niyati bevosita matn yuzasida emas, balki pragmatik presuppozitsiyalar va ko‘chma ma‘noli obrazlar orqali ifodalanadi; bunday modellarning illokutiv kuchini aniqlash uchun nutqiy vaziyatni va madaniy kodlarni chuqur interpretatsiya qilish talab etiladi.

3. **Konditsional** (shartli) model sud-lingvistik ekspertizasi uchun eng murakkab struktura hisoblanib, u “shart + natija” (agar A bo‘lsa, B bo‘ladi) formulasiga tayanadi va tahdidning amalga oshishini tinglovchining muayyan harakatni bajarish-bajarmasligiga bog‘liq qiladi [7:54].

Tahdidlarni bunday lingvistik tizimlashtirish nafaqat matnning illokutiv mohiyatini ochib beradi, balki huquqiy amaliyotda so‘zlovchining haqiqiy niyatini obyektiv baholash va nutqiy harakatning jinoiy xarakterini aniqlashda muhim nazariy-metodik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvokriminalistikada direktiv nutqiy aktlarni tahlil qilishning bir qancha ilmiy metodlari mavjud. Bu **lingvistik ekspertiza usuli** bo‘lib, unda matn quyidagi jihatlardan tekshiriladi: **leksik-semantik tahlil** (tahdid, majburlash, shantaj mazmunidagi so‘zlar va iboralarni aniqlash); **grammatik tahlil** (fe‘l shakllari, modal so‘zlar, gap tuzilmalarining tahdid ifodalashdagi roli); stilistik tahlil (matnning emotsional yuki, obrazliligi, nutqiy strategiyalar). Masalan, “Sening hayoting menga tegishli. Men uni istaganimcha davom ettirishim yoki to‘xtatishim mumkin” tahlil qilganda, leksik jihatdan “tegishli”, “istaganimcha”, “davom ettirishim”, “to‘xtatishim” so‘zlarida mulkchilik va to‘liq nazorat mazmuni aniqlanadi, grammatik jihatdan “mumkin” modal so‘zi orqali imkoniyat bildiriladi; stilistik jihatdan esa inson hayotini moddiylashtirish xususiyati mavjud. Bu barchasi jiddiy tahdidning belgilari hisoblanadi.

Direktiv nutqiy aktlarning modalizatsiyalashgan shakllari ham alohida tahlil obyektidir. Modal so‘zlar va modal konstruksiyalar direktiv aktning illokutiv kuchini o‘zgartirishi, kuchaytirishi yoki zaiflashtirishi mumkin. Masalan, “Siz bu ishni qilishingiz mumkin” – ruxsat, “Siz bu ishni qilishingiz kerak” – majburiyat, “Siz bu ishni qilishingiz shart” – qat‘iy talab, “Siz bu ishni qilishingiz lozim” – zaruriyat, “Siz bu ishni qilishingiz darkor” – eskirgan, tantanavor majburiyat, “Siz bu ishni qilsangiz

bo‘ladi” – yumshoq ruxsat, “Siz bu ishni qilmasligingiz kerak” – taqiq, “Siz bu ishni qilmasangiz ham bo‘ladi” – ixtiyoriylik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Huquqiy baholashda aynan modal elementlar direktiv aktning majburlash darajasini belgilaydi. “Shart” va “majbur” modal birliklari eng yuqori darajadagi bosimni, “kerak” o‘rtacha darajadagi zaruriyatni, “mumkin” esa erkinlik va ixtiyoriylikni ifodalaydi. Shu bilan birga, modalizatsiyalashgan direktiv aktlarning paradoksal xususiyati shundaki, ba’zida yumshoq modal shakllar (masalan, “Siz bu ishni qilsangiz yaxshi bo‘lardi”) kontekstga qarab kuchli bosim va tahdidni ifodalashi mumkin.

Direktiv **nutqiy aktning pragmatik interpretatsion kengligi** – bir xil nutqiy aktning turli kontekstlarda qarama-qarshi illokutiv kuchlarni ifodalashi mumkinligi lingvistik ekspertiza oldida turgan eng murakkab masalalardan biridir. Masalan, “Ehtiyot bo‘ling” degan direktiv akt oddiy vaziyatda xayrixohlik, g‘amxo‘rlik, ogohlantirish ma’nosida bo‘ladi. Biroq, agar bu gap so‘zlovchi tomonidan jiddiy konflikt vaziyatida, keskin ohangda, tinglovchining ko‘ziga tik qarab aytilgan bo‘lsa, u tahdid va qo‘rqitish ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin. Yana bir misol: “Yaxshi o‘ylab ko‘ring” degan direktiv akt odatda maslahat, taklif ma’nosida bo‘ladi. Ammo shantaj vaziyatida, masalan, “Ertaga shu vaqtda pulni keltirmasangiz, yaxshi o‘ylab ko‘ring” degan kontekstda bu gap ochiq tahdidga aylanadi.

Direktiv nutqiy aktlarning kumulyativ effekti – bir necha direktiv aktlarning izchil ketma-ketligi, ularning takroriyligi va kuchayib borishi – lingvistik ekspertiza uchun muhim tahlil mezonidir. Birgina tahdid mazmunidagi gap o‘zicha jinoiy niyatni ifodalamasligi mumkin, biroq bir necha direktiv aktlarning izchil ketma-ketligi, ularning suhbat davomida takroriyligi, kuchayib borishi, tobora keskinlashuvi so‘zlovchining tizimli ravishda psixologik bosim o‘tkazayotganidan dalolat beradi. Masalan, “Ishni vaqtida tugating” – “Ishni vaqtida tugatishingizni so‘rayman” – “Ishni vaqtida tugatishingiz kerak” – “Ishni vaqtida tugatmasangiz, oqibatini o‘zingiz bilasiz” – “Sizni ogohlantirdim, endi o‘ylab ko‘ring” kabi direktiv aktlar ketma-ketligi so‘zlovchining iltimosdan boshlab, ochiq tahdidgacha bo‘lgan evolyutsiyasini ko‘rsatadi. Bu kabi kumulyativ modellarni tahlil qilish so‘zlovchining asl niyatini, uning kommunikativ strategiyasini va psixologik bosim darajasini aniqlash imkonini beradi.

Direktiv nutqiy aktlarning manipulyativ strategiyalari lingvokriminalistik tahlilning alohida yo‘nalishidir. Manipulyatsiya – so‘zlovchining tinglovchi ongiga, irodasiga, xatti-harakatlariga uning o‘zi sezmagan holda ta’sir o‘tkazish, uni o‘z manfaatlari yo‘lida boshqarishdir. Manipulyativ direktiv aktlar yuzaki xayrixohlik, hamkorlik, maslahat, iltimos, taklif kabi ma’nolarni ifodalab, aslida esa bosim, majburlash, aldash, chalg‘itish, aybdorlik hissini uyg‘otish kabi niyatlarni amalga oshiradi. Masalan, “Agar siz haqiqatan ham halol inson bo‘lsangiz, bu hujjatni imzolaysiz” degan gapda manipulyativ strategiya aniq ko‘rinadi: so‘zlovchi tinglovchining halolligi haqidagi tasavvuriga murojaat qiladi va agar u hujjatni imzolamasa, o‘zini halol inson deb hisoblay olmasligiga ishora qiladi. Bu yerda ochiq tahdid yoki majburlash yo‘q, ammo psixologik bosim juda kuchli. Manipulyativ direktiv aktlarni tahlil qilishda presuppozitsiya, implikatura, sotsial normalarga murojaat, axloqiy qadriyatlardan foydalanish, aybdorlik hissini uyg‘otish kabi mexanizmlar alohida o‘rganiladi.

Direktiv nutqiy aktlarning gender xususiyatlari ham lingvokriminalistik tahlilda e’tiborga olinishi zarur bo‘lgan omillardir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklar va ayollarning direktiv aktlarni qo‘llash uslubi, ularning intensivligi, ifoda vositalari,

murojaat shakllari farqlanadi. Erkaklar direktiv aktlarni ko'proq imperativ, qat'iy, ochiq shakllarda ifodalashga moyil: "Buni qil", "Kechiktirmay", "Aniq bajar". Ayollar esa direktiv aktlarni ko'proq yumshoq, iltimos, maslahat, taklif shaklida ifodalaydilar: "Iltimos, qilib qo'ying", "Yaxshisi, buni qilaylik", "Balki shunday qilsak bo'lar?". Biroq, bu gender farqlar direktiv aktlarning huquqiy baholanishida asosiy mezon bo'la olmaydi, chunki kontekst va kommunikativ vaziyat gender xususiyatlaridan ustun turadi. Shu bilan birga, sud-lingvistik ekspertiza xulosalarida gender stereotiplari va noto'g'ri talqinlardan qochish maqsadida gender omilini obyektiv baholash zarur.

Direktiv nutqiy aktlarning psixolingvistik tahlili so'zlovchining nutqiy harakatini amalga oshirishdagi psixologik holatini, uning emotional-intensional xususiyatlarini o'rganadi. Tahdid, majburlash, shantaj kabi direktiv aktlarni amalga oshiruvchi shaxslar nutqida agressiv leksika, keskin ohang, imperativ konstruksiyalar, takrorlar, qisqa, kesilgan gaplar, so'kish va haqorat ko'p uchraydi. Masalan, "Eshit, sen!", "Aytдим-ku!", "Oxirgi marta deyaпman!", "Ko'zinga qara!" kabi iboralar so'zlovchining asabiylashgan, g'azablangan, o'zini tuta olmayotgan holatini ko'rsatadi. Psixolingvistik tahlil direktiv aktning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, hissiy portlash natijasida yoki rejali ravishda amalga oshirilganligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa huquqiy baholashda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, direktiv nutqiy aktlarning terminologik muammolari lingvokriminalistikada hal etilishi lozim bo'lgan masalalardandir. "Tahdid", "majburlash", "shantaj", "ogohlantirish", "maslahat", "iltimos", "talab" kabi atamalarning aniq ilmiy ta'riflari, ularni bir-biridan farqlash mezonlari ishlab chiqilishi zarur. Amaliyotda ko'pincha bu atamalar bir-birining o'rnida qo'llaniladi yoki ular o'rtasida aniq chegara yo'q. Bu esa sud-lingvistik ekspertiza xulosalarining noaniq, subyektiv bo'lishiga olib keladi. Shu bois, direktiv nutqiy aktlarning yagona klassifikatsiyasi, terminologik lug'ati va tahlil mezonlari ishlab chiqilishi dolzarb vazifadir.

Xulosa.

Direktiv nutqiy aktlarning lingvokriminalistikadagi pragmatik tahlili tilshunoslik va huquqni muhofaza qilish faoliyatining kesishmasidagi muhim yo'nalishdir. Maqolada ko'rib chiqilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, lingvistik tahlil usullarini sud ekspertizasiga muvaffaqiyatli qo'llash huquqiy jarayonlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga hissa qo'shadi.

O'zbek tilidagi direktiv aktlarning batafsil lingvistik tavsifi ularni sud amaliyotida aniqlash va baholash imkoniyatini kengaytiradi. Tahdid, majburlash va shantaj aktlarining grammatik, leksik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish sud-lingvistik ekspertiza uchun qimmatli metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Lingvistik ekspertiza metodlarini takomillashtirish, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini ishlab chiqish va mutaxassislarning malakasini oshirish ushbu sohaning muhim vazifalaridir. Lingvokriminalistikaning rivojlanishida pragmalingvistikaning roli muhimdir. Pragmalingvistika nutqning konteksti, maqsadi va kommunikativ samarasini o'rganadi. Tahdid, shantaj yoki majburlash kabi nutqiy huquqbuzarliklarni aniqlashda matnning yashirin ma'nolari, kinoya, og'zaki-yozma nutq farqlari va madaniy kodlarni tushunish zarur. Lingvistik ekspertiza metodlarini takomillashtirish, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini ishlab chiqish, mutaxassislar malakasini oshirish va yagona mezonlar ishlab chiqish ushbu sohani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2001. №4. -B. 54-57.
2. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent, 2020. – 475 b.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 320 b.
4. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
5. Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. Вып. XVII. – С. 22–129.
6. Галяшина Е.И. Методологические основы судебного речеведения : автореф. дис. ... д-ра филол. наук / Галяшина Е.И. ; Моск. гос. ун-т им. М.В. Ломоносова. Филол. фак. – М., 2003. – 48 с.
7. Баранов А. Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика: Учебное пособие. – М.: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

Aliyeva Saodat Po'lat qizi, Farg'ona davlat universiteti talabasi

aliyevanozanin575@gmail.com

Kosimov Alijon Raxmatovich, Farg'ona davlat universiteti dotsenti ORCID ID

0000-0002-2331-7516, alijon5070@mail.ru



SAVODXONLIK, MANTIQUIY VA IFODALI NUTQ ORQALI TO'G'RI TUZILGAN GAPLAR

<https://zenodo.org/records/18729146>

Annotatsiya: Maqolada til va sintaksis birligi bo'lgan gaplar, ya'ni so'zlarning (yoki bitta so'zning) grammatik jihatdan tuzilgan birikmasi, semantik va intonatsion jihatdan to'liqligi ko'rib chiqilgan. Har bir tasnif gapning qanday tuzilganligi va qanday vazifani bajarishi haqidagi turli savollarga javob beradi. Bunday bo'linish gapning kommunikativ yo'nalishini, uning nutqiy muloqotdagi rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: so'zlar, gap, darak, so'roq, buyruq, undov va undovsiz.

РАЗВИТИЕ ГРАМОТНОЙ, ЛОГИЧНОЙ И ВЫРАЗИТЕЛЬНОЙ РЕЧИ ПОСРЕДСТВОМ ГРАМОТНО ВЫСТРОЕННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Аннотация: В статье рассмотрены предложения – единица языка и синтаксиса, которая представляет собой грамматически выстроенное соединение слов (или одно слово), обладающее смысловой и интонационной законченностью. Каждая классификация отвечает на разные вопросы о том, как предложение построено и какую функцию выполняет. Такое деление подчеркивает коммуникативную направленность предложения и его роль в речевом общении.